

SOLNOMASI

HAR CHORAKDA BIR MARTA CHOP ETILADI



NOBEL MUKOFOTI LAUREATI QO'QON UNIVERSITETIDA

Qo'qon universitetiga Nobel mukofoti laureati Raekwon Chung tashrif buyurdi. Professor **Raekwon Chung** Qo'qon universitetida talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishdi hamda universitet universiteti professor o'qituvchilari bilan uchrashdi.

Albatta, BMTda



iqlim o'zgarishi bo'yicha bosh maslahatchi, tinchlik bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori, Janubiy Koreyadagi **Incheon milliy universiteti** faxriy professori hisoblangan martabali mehmon – janob Raekwon Chungni universitetda mehmon bo'lishi barcha iliq taassurot qoldirdi.

Qo'qon universitetida yangi o'quv yili tantanali ravishda ochildi



Bugun yurtimizning barcha oliy ta'lim muassasalari kabi Qo'qon universitetida ham yangi o'quv yiliga start berildi. **“Yangi hayot uchun – yangi O'zbekiston uchun!”** shiori ostida bo'lib

o'tgan tadbirni Qo'qon universiteti direktori **G'afurjon Zaxidov** ochib berdi.

Universitet direktori barcha talabalarni yangi o'quv yili bilan qutlab puxta ilm olib, kelajakda yurt ravnaqi yo'lida barcha bilimlarini sarflashlariga tilak bildirdi. Joriy o'quv yilida universitet jamoasi hamda professor-o'qituvchilar talaba-yoshlarga yuqori darajada ta'lim-tarbiya berish uchun

bor kuch va bilimlarini safarbar etishga tayyor ekanliklarini ma'lum qildi.

Shu bilan birga, yangi o'quv yili bilan talabalarni qutlash uchun Qo'qon shahar hokimi **Ma'rufjon Usmonov** ham tashrif buyurdi. Yoshlarni Qo'qon shahridagi tarixiy universitet – respublikamizdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan birining talabasi bo'lganliklari bilan qutladi.



Bundan tashqari, barcha yoshlar uchun ilm olish har qachongidan ham zarurligini ta'kidlab, darslarni chuqur o'zlashtirish, bilimlarini mustahkamlash borasida o'z tavsiyalarini berib o'tdi.



Universitet rektori bilan unutilmas uchrashuv

Qo'qon universiteti rektori **Sung Joon Lee** 1-kurs talabalari bilan uchrashuv o'tkazdi. Ochiq muloqotda universitet rektori **Sung Joon Lee** 1-kurs iqtisodiyot yo'nalishi talabalari bilan yaqindan tanishib, sohaga doir o'zining boy shaxsiy tajribasini aytib, zarur tavsiyalar berib o'tdi.

Shu bilan birga, professor **Sung Joon Lee** talabalarining qiziqtirgan savollariga javob berdi. Ularning kelgusi ishlariga muvaffaqiyatlar tiladi. Talabalar universitet rektori bilan bo'lgan tanishuvdan u kishining kuyunchalik bilan bergan tavsiyalaridan beixtiyor mamnun bo'lishdi.



Universitet imkoniyatlari ota-onalarda yorqin taassurot qoldirdi

» Qo'qon universiteti talabalarini yetuk kadr bo'lishi, bilimli, ilmi bo'lishida ota-onalar bilan aloqa qilishni yo'lga qo'ygan. Bu an'ana, albatta, o'z dilbandlarining kelajakda **barkamol** bo'lib,

el-yurt koriga yaraydigan shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Buning natijasi o'laroq, Qo'qon universiteti direktori talabalikka tavsiya etilgan talabalarining ota-ona-

lari bilan uchrashib, ular bilan dildan suhbat olib bordi. Uchrashuvda universitet direktori ota-onalarga universitetdagi talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar, tartib-intizom, ta'lim jarayoni, **xorijda amaliyot qilish** haqida tushuntirdi.

Bundan tashqari, til o'rganish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, talabalarining vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha o'tkaziladigan ko'ngilochar tadbirlar, **grantlar** hamda **stipendiyalarga** to'xtalib o'tdi.



Shuningdek, ota-onalarning qiziqtirgan savollariga javob berilib, farzandlarining bilim olishi uchun birgalikda harakat qilish kerakligi ta'kidlab o'tildi! Bu uchrashuv barcha ota-onalarga manzur bo'ldi. Zero, farzandlarga e'tibor ertangi yorqin kelajakka e'tibor, demakdir.



Ota-onalar universitet imkoniyatlaridan mamnun

Qo'qon universitetida **1-kurs** talabalarining **ota-onalari** uchun universitet asosiy kampusi bilan tanishuv tashkil etildi. Ota-onalar tanishuv davomida talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar: oshxona, yotoqxona, kutubxona, sport kompleksi, dars o'tish xonalari va boshqa bir qator imkoniyatlarning guvohiga aylanishdi.

Ota-onalar universitet moddiy texnik bazasini ku-

zatar ekan farzandlari uchun yaratilgan imkoniyatlardan ko'ngillari quvonchga to'ldi. Bunday muhtasham, ko'rkam, ilm maskanida dilbandlarini yetuk kadr bo'lishiga ishonch har bir ota-onaning yuz-ko'zlarida aks etdi.

Shuningdek, ota-onalar farzandlarining bilim olishi uchun astoydil harakat qilishlarini ta'kidlab, tanishuv uchun o'z minnatdorchiligini bildirishdi.



Qo'qon universitetida "Direktor va talabalar" uchrashuvi samarali o'tdi

Talabalikni inson umrining oltin davriga qiyoslanganligi bejiz emasdir. Chunki inson o'zining mazmunli hayoti davomida bir marta talaba bo'lish baxtiga muyassar bo'ladi. Zero, talabalik inson umrining takrorlanmas va unutilmas bahoridir. Ular yurtimiz kelajagingining bunyodkori va ertangi kunimiz umidi hisoblanadi. Shu boisdan bugun ta'lim dargohlarida ularning bilimli, salohiyatli yetuk kadr bo'lishi uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuning uchun respublikamizning barcha hududlarida rahbar va yoshlar uchrashuvi tashkil etilib, ular bilan ochiq muloqotlar

o'tkazilib kelinmoqda. Samimiy, do'stona ruhda va hech qanday rasmiyatchiliklarsiz o'tayotgan uchrashuvlarda nafaqat talaba-yoshlarni qiyayotgan muammo, masalalar o'rta tashlanmoqda, balki yoshlarning taklif va tashabbuslari qo'llab-quvvatlanmoqda.

Buning natijasi o'laroq, Qo'qon universiteti direktori **G'afurjon Zaxidov Maktabgacha ta'lim** (3 yil va undan ko'p ish stajiga ega bo'lgan) masofaviy ta'lim shakli talabalar bilan o'zaro ochiq muloqotda bo'ldi.

Uchrashuvda universitet direktori talabalarini

eng ilmi, ruhan va jismonan barkamol, eng ziyoli va eng boy bitiruvchilar bo'lishi kerakligini e'tirof etdi. Shu bilan birga, oliy ma'lumotli insonlar, ayniqsa, talaba-qizlar, avvalo, oilaga, qolaversa, butun jamiyatga ilm olib kirishini ta'kidladi hamda yangi o'quv yili oldidan **ulkan muvaffaqiyatlar** tiladi.

Shuningdek, talabalarining akademik hayoti bilan tanishib, ijtimoiy-ma'naviy muhitini yanada yaxshilash, muammo va takliflarini o'rganish yuzasidan zarur tavsiyalar berdi va qiziqtirgan savollariga javob berib, ularga sifatli ta'lim olish yuzasidan zarur ko'rsatmalar berib o'tdi.



"ORIENTATION WEEK" – CHEKSIZ IMKONIYATLAR POYDEVORI!



Qo'qon universitetida talabalarni an'anaviy mustaqil ta'lim jarayoni bilan tanishtirish maqsadida masofaviy ta'lim shakliga talabalikka tavsiya etilgan **1-kurs** talabalari uchun **"Orientation week"** seminar-trening darslari bo'lib o'tdi.

Seminar-trening darslarida talabalarga mas'ullar tomonidan **ECTS kredit-modul tizimi** asosida o'qish, **HEMIS** ta'lim platformasidan foydalanish, baholash mezonlari, **GPA** ko'rsatkichlari va mustaqil ta'lim bo'yicha ma'lumotlar berib o'tildi.



Muhtasham tarixiy obidaga sayohat

"Orientation week" haftaligi doirasida 1-kurs talabalari Qo'qon shahridagi muhtasham tarixiy obidalardan biri – **Xudoyorxon o'rdasi** bilan tanishishdi.

Qo'qon madaniyati

tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlar berdilar.

Shuningdek, qadimiy qo'lyozmalar, hunarmandchilik buyumlari, kitoblar va boshqa eksponatlar talabalarining ma'naviy boyligini



va tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimlari talabalarga tashqi qal'a, o'rta va ichki saroylar hamda bog'dan iborat bo'lgan inshootning bunyod etilish

oshishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, talabalar Qo'qon tarixi bo'yicha tasavvurga ega bo'lib, bir olam taassurotlar bilan qaytdilar.

"Orientation week" haftaligi doirasida ekskursiya

Qo'qon universiteti-da 1-kurs uchun tavsiya etilgan talabalarga **"Orientation week"** haftaligi doirasida universitet asosiy kampusi bo'ylab ekskursiya tashkil etildi.

Mazkur ekskursiya davomida talabalar o'zlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, yotoqxona, universitet moddiy texnik bazasi bilan yaqindan tanishib chiqishdi.



Haftalik doirasida direktor va talabalar uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Qo'qon universiteti-da 1-kurs masofaviy ta'lim shakli talabalari uchun **"Orientation week"** haftaligi doirasida seminar-trening darslari bo'lib o'tdi. Trenerlar talabalarining ta'lim olishi

Uchrashuvda talabalarga universitetda yaratilgan imkoniyatlar, ichki tartib-intizom, ECTS kredit-modul tizimi asosida o'qish, HEMIS ta'lim platformasidan foydalanish, baholash mezonlari,



uchun zarur imkoniyat va tartib-intizomni tushuntirib o'tmoqda.

GPA ko'rsatkichlari va mustaqil ta'lim bo'yicha tushuncha berib o'tildi.

"Mening go'zal yurtim" mavzusida tanlov bo'lib o'tdi



Qo'qon universitetining 1-kurs talabalari uchun "Orientation week" haftaligi doirasida **"Mening go'zal yurtim"** mavzusida tanlov bo'lib o'tdi. Mazkur tanlovda talabalar mavzu bo'yicha turli tillarda nutqlar, videoroliklar, she'r va insholar bilan qat-

nashdilar.

Bunday tanlovlar, albatta, talaba-yoshlar o'rta-sida vatanparvarlik tuyg'ularini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yakunda talabalar faxriy yorliq va estalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

MURABBIYLAR KUNIGA MUNOSIB TUHFA!



Qo'qon universitetining direktori, iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent – **Zaxidov G'afurjon Erkinovich** Farg'ona viloyat hokimi, **Bozorov Hayrullo Hayitbayevich** tomonidan **faxriy yorliq** bilan taqdirlandi.

Faxriy yorliq Zaxidov G'afurjon Erkinovichga ta'lim tizimini rivojlantirish, sohaga doir islohotlarni mu-

vaffaqiyatli amalga oshirganligi hamda **1-oktyabr O'qituvchi va murabbiylar kuni** munosabati bilan berildi.

Ustoz barcha talabalar hamda jamoamiz nomidan yana bir bor sizni ushbu mukofot bilan tabriklaymiz, martabangiz bundanda ulug' bo'lsin. Sihat-salomatlik, oilaviy xotirjamlik, tinchlik va farovon hayot hamisha hamrohingiz bo'lsin!

Bayramingiz muborak aziz ustozlar!

Qo'qon universiteti professor-o'qituvchilari va xodimlari bayram munosabati bilan talabalarining ajoyib badiiy dastur chiqishiga guvoh

bo'lishdi. Talabalarining 1-oktyabr – **“O'qituvchi va murabbiylar kuni”**ga bag'ishlagan tadbir dasturi barchaga xush kayfiyat ulashdi.

Tadbirda talaba-yoshlar ustozlarga ehtirom ruhida she'rilar o'qib, turli tilalarda tabriknomalar aytishdi, cholg'u asboblari orqali ijro

etilgan kuylar hamda qizlarning raqsi har bir insonning qalbiga ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi.



Davlat mukofoti muborak, Muborak Adilovna!



Qo'qon universiteti Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig'i – **Ganiyeva Muborak Adilovna** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan oliy ta'lim sohasida vij-

donan faoliyat olib borib, yosh avlodning sifatli ta'lim olishida o'zining fidokorona mehnati bilan namuna bo'layotgan, tizim rivoji uchun o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgani uchun **“Oliy ta'lim a'lochisi”** ko'krak nishoni bilan taqdir-

landi.

Muborak Adilovnaga universitet jamoasi nomidan sog'lik-salomatlik, mashaqqatli ilm yo'lida kuch-quvvat tilab qolamiz! Kelajakda ushbu ezgu xizmatlaringizning totli mevalarini ko'rish nasib etsin!

Muhim strategik rejalar belgilab olindi

Qo'qon universiteti-da navbatdan tashqari **kengash** bo'lib o'tdi. Mazkur kengashda 2023/2024-o'quv yili strategiyasi, asosiy ustuvor yo'nalishlar, istiqbolda kutilayotgan rejalar belgilab olindi.

Bundan tashqari, Qo'qon universiteti direktori **G'afurjon Zaxidov** yig'ilgan barcha o'qituvchilarni 1-ok-

tyabr O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan tabrikladi. Ularni kelgusi faoliyatiga muvaffaqiyat va zafarlar tiladi.

Shuningdek, universitet direktori Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan **“Oliy ta'lim a'lochisi”** unvoni olgan **Ganiyeva Muborak Adilovna** hamda Ta'lim kafedrasida o'qituvchisi **Zarafshon Kalendarova**

Kalbayevnning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa dokto-

ri (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lganligi bilan tabrikladi.



Xalqaro memorandum imzolandi

Qo'qon universiteti hamda Janubiy Koreyaning **Cheju Halla** universiteti o'rtasida memorandum imzolandi.

Muzokara davomida har ikki oliy ta'lim muassasaning serqirra faoliyatiga to'xtalib o'tildi. Shuningdek, kelajakda Cheju Halla universiteti bilan talabalar almashish, qo'shma dasturlar asosida faoliyat yuritishga keli-

shildi hamda ikki o'rtada hamkorlik memorandumi imzolandi.

Cheju universiteti prezidenti **Sung-Hun Kim** yakunda Qo'qon universiteti rahbariyatiga memorandum uchun o'z minnatdorchiligini bildirib, o'rtadagi hamkorlik talabalarning yetuk kadr bo'lishiga umid qilishini bildirdi.



Orhun almashinuv dasturi amalda

Qo'qon universiteti-ga Orhun almashinuv dasturi bo'yicha Ozarbayjondan **Nigar Agayeva** hamda **Nargiz Hashimova**lar tashrif buyurdilar.



Mazkur tashrif mobaynida ozarbayjonlik o'qituvchilar universitet talabalari uchun seminar o'tkazishib, Jahon tillari kafedrasining o'qituvchilari bilan o'zaro tajriba almashishdi. Ozarbayjonlik o'qituvchilar

ingliz tili fanidan **"Getting to know you"** mavzusida ajoyib seminar-trening mashg'uloti tashkil etishdi. Noodatiy seminar-trening barcha talabalarida iliq taassurot qoldirdi.



Shuningdek, Qozog'istonning **Atirau universiteti** professor-o'qituvchilari

Janilsin Sabirova, Gulshat Shugayeva va Ulday Tulegenova, Ainur Tajidinova va Raihan Magauina hamda Xalqaro Qirg'iziston universitetidan **Kaliybek Abdikad-**

irov Qo'qon universitetiga tashrif buyurdi. Ular talabalarimizga psixologiyaga va

iqtisodiyotga oid fanlardan ikki hafta mobaynida dars berdilar.

Tashrif uchun Qo'qon universiteti direktori **G'afurjon Zaxidov** tomoni-



dan Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'izistondan kelgan o'qituvchilarga sertifikat topshirildi. Shuningdek, seminar-trening mashg'ulotlari va o'zaro hamkorlik uchun minnatdorchilik bildirildi.

Hayrat va havas uyg'unligi

Qozog'iston va **Qirg'izistondan** kelgan xorijlik professor-o'qituvchilar Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchilari tomonidan Qo'qon universiteti va shahar **madaniy yodgorliklari** bilan tanishishdi.



Qo'qon universitetida yaratilgan talabalar uchun shart-sharoitlar, imkoniyatlar, moddiy texnik bazasi va Qo'qon tarixidan so'zlovchi madaniy yodgorliklar ularda yorqin taassurot qoldirdi.

Mehrigiyo savdo shoxobchasi va Qo'qon dehqon bozorida amaliy dars

Qo'qon universiteti talabalarining amaliy bilimlarini oshirish maqsadida **"Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish"** fani doirasida Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi **Xursanaliyev Boburmirzo** tomonidan talabalar uchun **Mehrigiyo** sav-

do shoxobchasi va Qo'qon dehqon bozorida amaliy dars tashkil etildi.

3-kurs turizm yo'nalishi talabalarini tashkil etilgan amaliy darsda talabalar sotuv jarayonlarini tashkil etish, mijozlar bilan munosabat o'rnatish va sotuv madaniyati haqida tajriba orttirdilar.



ONA TILI – QALBIM QUYOSHI!

O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir

Shavkat Mirziyoyev

Qo'qon universiteti-da Qo'qon shahar hokimligi bilan hamkorlikda o'zbek tili-ga davlat tili maqomi berilgan-ligining 34 yilligi munosaba-ti bilan **"Ona tili – qalbim quyoshi"** mavzusida adabiy-



badiiy kecha o'tkazildi.

Tadbirni Qo'qon shahar hokimining davlat tili masalalari maslahatchisi **Dilfuza Alimova** hamda uni-versitet Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori **Sherzod Dexkanov** ochib berdi.

Adabiy-badiiy ke-chada iqtidorli talabalarimiz tomonidan kuy-qo'shiqlar, raqslar ijro etildi. Tilimizni

ulug'lovchi she'rlar, g'azal-lar o'qildi. Bu esa albatta bar-cha tadbir ishtirokchilariga

bir olam quvonch va ona tili-mizga nisbatan g'urur baxsh etdi.



Hamkorlik aloqalari kengaymoqda



Qo'qon universite-ti va **A.I.Gersen** nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti vakillari – **Sergey Barchenko** **Alekseyev**, **Tatyana Belyayeva** **Vla-dimirovna**, **A.I.Gersen**alar o'rtasida muzokara bo'lib o'tdi. Uchrashuvda har ikki oliygo'h manfaatlarini ko'zda tutuvchi maqsadlar va takliflar o'rtaga tashlandi.

Shuningdek, peda-gogik ta'lim sifatini ta'min-lash, yangi bilim va mala-kalarni shakllantiruvchi re-surslarni birlashtirish, talaba-lar va professor-o'qituvchilar uchun stajirovka tashkil etish va ilg'or ta'lim amaliyotlari-da muvofiqlikka erishish kabi masalalar xususida fikr al-mashildi.

Qo'qon mexanika zavodida amaliy dars

Qo'qon universi-tetining iqtisodiyot yo'nali-shi talabalariga amaliy dars Xalqaro turizm va iqtisodi-yot kafedrası o'qituvchisi Azizxon Umarov tomonidan

o'tib berildi. Amaliy darsda talabalar iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanidan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda yaqqol ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Albatta, bunday amaliy darslar talabalarning chuqur bilimga ega bo'lishi-da muhim ahamiyat kasb etadi.



TALABALAR HAMISHA E'TIBORDA

Qo'qon Universi-tetida Yoshlar ishlari agentligi va **Yoshlar Ittifoqi Marka-ziy Kengashining** Respub-lik mutasaddilari tomonidan seminar-trening o'tkazildi. Mutasaddilar dastlab Qo'qon universitetida talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan ya-qindan tanishdi.

So'ngra, universitet B binosida Qo'qon shahrida-gi oliy ta'lim muassasalaridan kelgan yoshlar yetakchilari, koordinatorlari, guruh sardor-lari, psixologlar uchun semi-

nar-trening o'tkazildi.

Uchrashuvda ishchi guruh vakillaridan **Bozorov Otabek** **Hasanboyevich**

hamda **Sattorov Umid Ulasheyivich** ishtirokchilar-ga bugungi kunda yoshlar uchun yaratilgan ta'lim kre-



diti, til sertifikati beradigan imkoniyatlar, volontyorlik loyihalariga grantlar, 5 ta-shabbus olimpiadasi va bosh-qa ko'plab imkoniyatlar bilan tanishtirib, tengdoshlarini xabardor qilishda hamkorlik qilishga chaqirdi.

Shuningdek, semi-nar-treningda Qo'qon univer-sitetining Yoshlar ishlari ma-salalari bo'yicha prorektori **Sherzod Dexkanov**, dekan o'rinbosarlari, talaba-yoshlari ishtirok etdilar.

Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashamiz!

Qo'qon universiteti-da Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi lektori **Zokirjon Mardonov** ishtirokida



"Jaholatga qarshi ma'rifat" mavzusida targ'ibot tadbiri olib borildi.

Tadbirda milliy qadriyatlarimiz, ularga rahna solayotgan omillar, ayniqsa, yoshlar ongiga ta'sir o'tkazish maqsadida amalga oshirilayotgan informatsion xurujlarning mazmun-mohiyati, mamlakatimizda din erkinligini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar, tinchlikparvar siyosat xususida **"Tinchlik qadri"**

nomli maxsus videorolik tadbirda ishtirok etgan talabalar hamda murabbiylarga namoyish etildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston xalqaro islom

akademiyasi lektorlari tadbir ishtirokchilarining savollariga javob berib, yoshlarni yot g'oyalardan, noqonuniy harakatlardan ogoh bo'lishga chaqirdilar.



O'qituvchilar uchun manfaatli seminar-trening

Qo'qon universitetida o'qituvchilar uchun **"Zamonaviy ta'lim-texnologiyalari va kasb malakasi"** mavzusida seminar-trening bo'lib o'tdi.

Mazkur treningda o'qituvchilarga innovatsion

ta'lim texnologiyalarni tanishtirish, mashg'ulotlarda mustaqil faoliyat yuritish, talabalar bilan Hemis platformasi orqali mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish yo'llari va boshqa ko'nikmalar tushuntirib o'tildi.



Marg'ilon pedagogika kollejida trening tashkil etildi



Qo'qon universitetining professor o'qituvchilari – **Ganiyeva Muborak Adilovna, Eraliyeva Zamira Rasuljonovna** hamda **Yo'ldashev Axrorjon Egamnazar o'g'lilar** tomonidan Marg'ilon pedagogika kollejining o'qituvchilariga seminar-trening o'tib berildi.

Seminar-treningda professor o'qituvchilar tomonidan Oliy ta'limda innovatsion strategiya va

zamonaviy o'qitish metodlari, dars sifatini oshirish uchun pedagogik hamda axborot texnologiyalar bo'yicha batafsil tushunchalar berib o'tildi.

Shuningdek, kahoot, create, gamma.ark, chat.opinai dasturlari bilan tanishtirib o'tildi. Kollej o'qituvchilari seminar-treningda o'zlari uchun kerakli amaliy ko'nikmalarga ega bo'lib, o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob olishdi.

Talabalar uchun TravellINE laboratoriyasi ochildi!

Qo'qon universitetida Mehmonxona va turizmni boshqarish yo'nalishi talabalari uchun **TravellINE** laboratoriya ochildi. Mazkur laboratoriya Qo'qon universiteti va TravellINE kompaniyasi hamkorligida o'z faoliyatini boshladi.

TravellINE laboratoriyasidan foydalanish orqali talabalar mehmonxona boshqaruvi bo'yicha bugungi kunda O'zbekistonda eng tez tarqalib borayotgan tizimda

real caselar orqali ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ma'lumot uchun, TravellINE – bu katta, o'rta va kichik mehmonxona biznesini boshqarish uchun avtomatlashtirish tizimi hisoblanadi. Unda mijozlar bilan ishlash, turar-joy obyektlarini boshqarish, mehmonxona xonalari sotuvini oshirish, check-in va check-out kabi mehmonxonaning barcha xizmatlaridan foydalanish mumkin.



MAKTAB O'QUVCHILARI QO'QON UNIVERSITETIDA

Qo'qon universitetiga Dang'ara tumanidagi 30-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari tashrif buyurdi. Qo'qon universitetiga o'tkazilgan ekskursiya davomida o'quvchilarga universitetda talabalarga yaratilgan imkoniyatlar, dars jara-

yonlari, kutubxona faoliyati to'g'risida batafsil tushuntirib o'tildi.

Oliy ta'limga qiziqishni uyg'otish, yosh avlodni kasbga yo'naltirish maqsadida o'tkazilgan ekskursiya barcha o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.



"TA'LIM 2024: INNOVATSIYALAR VA SAMARALI AMALIYOT" MAVZUSIDAGI ANJUMAN

Qo'qon universitetining professor-o'qituvchilari Toshkent shahrida NTM lar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan "Ta'lim 2024: innovatsiyalar va samarali amaliyot" mavzusidagi anjumanda ishtirok etishdi.

Anjumanda sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassis, ta'lim metodologiyasi bo'yicha metodist A.Komisarov hamda pedagogika



fanlari nomzodi K.Kuksolar ishtirok etishdi.

Anjumanda so'zga chiqqanlar NTMlar uyush-

masi, bugungi kunda mam-lakatimizda ularning o'zni va ahamiyati, shuningdek, taraqqiyotga yo'l faqat ta'lim orqali ekanligini ta'kidladi.

Bundan tashqari, ma'ruzachilar tomonidan 4K o'qitish modeli bo'yicha ta'lim metodlari, tafakkurni shakllantirishga qaratilgan 3D texnologiyalari hamda neyroset pedagogikaga urg'u berildi.

Professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari uchun seminar-trening


Qo'qon universitetining professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari uchun "Ta'lim 2024: innovatsiya sari qadam" mavzusida seminar-trening bo'lib o'tmoqda.

Seminar-treningda ishtirokchilarga neyroset pedagogika: undan foydalanishning samarali usul va vositalari, 4K modeli va uni amalga oshirish, Ta'lim menejmenti va uni samarali boshqarish yo'llari, Ta'limda innovat-

sion metodlarni qo'llashning samarali yo'llari mavzulari bo'yicha boy tajriba va ko'nikmalar ulashilmoqda.

Bundan tashqari, seminar ishtirokchilariga "Well-being" elementlari, High Five, Quiz-quiz-trade, Self-discipline metodlari haqida to'liq ma'lumotlar berildi. Ikki kun davom etgan trening barcha seminar ishtirokchilarga manzur bo'ldi.

Qo'qon universitetida talabalar uchun "Sog'lomlashtirish markazi" tashkil etildi



Qo'qon universitetida Qizil Yarim oy jamiyati Qo'qon shahar tashkiloti tomonidan "Yoshlar zararli odatlarga qarshi" shiori doirasida "Sog'lomlashtirish markazi" o'z faoliyatini boshladi.

Mazkur markaz universitet talabalarini sportga

bo'lgan qiziqishini oshirish, sog'lom turmush tarziga jalb etishni maqsad qilgan. Shuningdek, markazda talabalar yugurish yo'lagi, velotrenajyor kabi sport anjomlari bilan shug'ullanish hamda shaxmat va shashka o'ynash bilan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari mumkin.



Bosh muharrir
G'ofurjon Xaxidov

Matn muharriri
Sultonboy Allonov

Sahifalovchi-dizayner
Asadbek Davrboyev

Fotomuxbir
Izzatbek Ibrohimov

Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri,
Turkiston ko'chasi, 28 A-uy

(+998) 73 545 55 55

@kokanduniversity